

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 105 (1166), 2024-yil 30-may, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

BANKLARNING
INVESTITSİYALAR VA BIZNESNI
QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDAGI
FAOLIYATI KO‘RIB CHIQLDIPrezident Shavkat Mirziyoyev 29-may kuni
“Asakabank” va Biznesni rivojlantirish bankining
investitsiya faoliyati hamda kichik va o‘rta biznesni
qo‘llab-quvvatlashga oid taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda investitsiya jarayonlari faol, iqtisodiy loyihalar talay. Shunga mos ravishda banklarning bundagi ishtiroki ortib, investitsion faoliyati kengayib bormoqda.

Taqdimotda “Asakabank” va Biznesni rivojlantirish bankining shu boradagi joriy yilgi rejaları ko‘rib chiqildi.

Xususan, “Asakabank” bu yil loyihalarga 2,1 milliard dollar jalb qilib, ularni to‘liq o‘zlashtirishni maqsad qilib qo‘ygan. Bundan tashqari, farmatsevtika va avtomobil sanoatida jami 3 milliard dollarlik loyihalar shakllantirilgan.

Shuningdek, “Asakabank” ishtirokida 285 ming aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish mo‘ljallangan.

Biznesni rivojlantirish bankining taqdimotiga ko‘ra, 2024-yilda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va investitsiya loyihalariga jami 1,5 milliard dollar jalb qilindi. Shundan 225 million dollari xalqaro moliya institutlaridan olib kelinadi. Ushbu mablag‘larni o‘zlashtirish orqali yil yakunigacha jami 47 mingdan ortiq mikroloiyhalar amalga oshirildi.

Shuningdek, aholining biznes g‘oyalari moliyalashtirish orqali 380 mingga o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Bankning o‘qitish dasturlari

bilan 70 mingdan ortiq aholini qamrab olish belgilangan.

Davlatimizning faol tashqi siyosati natijasida hamkor mamlakatlar va xalqaro tuzilmalar bilan ko‘plab kelishuvlarga erishilgan. Jumladan, “Asakabank” ishtirokida 772 million dollarlik 87 ta, Biznesni rivojlantirish banki tomonidan 485 million dollarlik 45 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Taqdimotda ushbu muhim loyihalarning borishi haqida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari banklar barcha mijozlari bilan manzilli ishlab, loyihaning har bir bosqichida ko‘maklashishi zarurligini, buning natijasi yangi ish o‘rinlari yaratilishi va mahallalarda kambag‘allikning qisqarishida o‘z ifodasini topishi kerakligini ta’kidladi.

Banklar o‘z ishini yangicha tashkil qilib, faqat kredit ajratadigan markaz emas, balki o‘zi istiqbolli loyihalarni amalga oshiradigan va ularni tayyor biznes sifatida tadbirkorlarga taqdim etadigan zamonaviy investitsiya-tijorat tuzilmasiga aylanishi maqsadga muvofiq qayd etildi.

Taqdimotda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini raqamlashtirish va ularning shaffofligini yanada oshirish, zamonaviy dasturiy yechimlar va innovatsiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORITARKIBIY ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA
EKSPERTLIK KO‘MAGI SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHGA DOIR
QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida keng ko‘lamli tarkibiy islohotlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun xorijiy ekspertlar ko‘magining muvofiqligini va ta’sirchanligini ta’minlash maqsadida:

1. Davlat organlari va tashkilotlari tarkibiy islohotlarni samarali amalga oshirish uchun malakali xorijiy konsultant va ekspertlarni, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarini hamda konsalting kompaniyalarini (keyingi o‘rinlarda — xorijiy konsultant va ekspertlar) o‘z mablag‘lari yoki byudjet mablag‘lari hisobidan jalb etish huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat organlari va tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — buyurtmachi tashkilot) tomonidan xorijiy konsultant va ekspertlarni jalb etish jarayonini muvofiqlashtiruvchi organ etib Strategik islohotlar agentligi belgilansin.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

a) xorijiy konsultant va ekspertlar ular bilan buyurtmachi tashkilot hamda Strategik islohotlar agentligi o‘rtasida tuziladigan uch tomonlama shartnoma asosida jalb qilinsin. Bunda:

xorijiy konsultant va ekspertlar bilan shartnoma bir yilgacha bo‘lgan muddatga tuziladi va ushbu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin;

shartnomada xorijiy konsultant va ekspertlar tomonidan amalga oshirilishi

lozim bo‘lgan vazifalar (texnik topshiriq shaklida) hamda erishiladigan individual maqsadli ko‘rsatkichlar (KPI) aks ettiriladi; buyurtmachi tashkilot har oy xorijiy konsultant va ekspertlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar to‘g‘risida dalolatnoma tuzadi. Bunda xorijiy konsultant va ekspertlar tomonidan jami amalga oshirilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar to‘g‘risida yakuniy dalolatnoma Strategik islohotlar agentligi bilan kelishilgan holda imzolanaadi;

b) xorijiy konsultant va ekspertlar quyidagi asosiy talablarga muvofiq bo‘lishi lozim:

iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqa ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarni isloh qilish bo‘yicha bilim, malaka va zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishi; nufuzli xalqaro tashkilotlar yoki xorijiy davlatlarning ilg‘or korxonalar va tashkilotlarida ish tajribasiga ega bo‘lishi; xorijiy tillarni (ingliz, rus va boshqalar) zarur darajada bilishi.

Bunda buyurtmachi tashkilot tomonidan xorijiy konsultant va ekspertlarga nisbatan qo‘shimcha talablar belgilanishi mumkin;

d) buyurtmachi tashkilot tomonidan xorijiy konsultant va ekspertlarni jalb qilish qonunchilikda belgilangan xarid qilish tartib-taomillariga muvofiq amalga oshiriladi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi

ustuvor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ—109-son qarorida belgilangan chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishga jalb qilinayotgan xorijiy konsultant va ekspertlar bundan mustasno;

e) xorijiy konsultant va ekspertlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar har oyda buyurtmachi tashkilot tomonidan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va o‘zining rasmiy veb-saytida yoritib boriladi, ular ishtirokida joriy masalalarni muhokama qilish va hal qilishning maqbul yo‘llarini aniqlash uchun muntazam ravishda uchrashuvlar tashkil qilinadi hamda tegishli takliflar tayyorlanadi;

f) xorijiy konsultant va ekspertlarni davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga tayinlash va lavozimidan ozod qilish davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

4. Strategik islohotlar agentligi (B.Raxmatov):

Hisob palatasi (A.Boboyev) bilan birgalikda bir oy muddatda davlat organlari va tashkilotlari bilan xorijiy konsultant va ekspertlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni qayta ko‘rib chiqsin, ularni mazkur qaror talablariga asosan o‘zgartirish (bekor qilish) bo‘yicha taklif kiritсин;

Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) bilan birgalikda 2024-yil 1-iyulga qadar xorijiy konsultant va ekspertlarning yagona elektron reyestrini shakllantirsin va uning muntazam ravishda yangilab borilishini ta’minlasin;

ikki hafta muddatda xorijiy konsultant va ekspertlar bilan yangi tartibda tuziladigan shartnomaning namunasini ishlab chiqsin hamda vazirlik va idoralarga taqdim qilsin;

mazkur qaror talablari yuzasidan vazirlik va idoralarga muntazam ravishda tushuntirish ishlarini olib borsin.

5. Tarkibiy islohotlarni samarali amalga oshirish uchun xorijiy konsultant va ekspertlarni jalb qilish tartibi to‘g‘risidagi nizam ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokida loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy konsultant va ekspertlarni jalb etish tegishli tashkilotlarning qoida va talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi B.M.Mavlonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 29-may

Tahlil

O‘ZBEKISTONNING SUVEREN
XALQARO OBLIGATSİYALARI
FOYDA QANDAY MAQSADLARDA
ISHLATILMOQDA?Joriy yilning 21-may kuni O‘zbekiston tomonidan umumiy
qiymati qariyb 1,5 milliard AQSH dollariga teng navbatdagi
suveren xalqaro obligatsiyalar ilk bor 3 valyutada jahon moliya
bozorlariga joylashtirildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi mutasaddilarining AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlar investorlari bilan videokonferentsiya shaklida o‘tkazilgan uchrashuvda O‘zbekiston milliy valyutada suveren xalqaro obligatsiyalar joylashtirish bo‘yicha buyurtmalar qabul qilishi bildirildi. O‘z navbatida, xalqaro investorlar mazkur tashabbusni olqishlab, dunyoda davom etayotgan murakkab vaziyatga qaramay, O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik saqlanayotgani, xususiy lashtirish va

boshqa tarkibiy islohotlar amaliy jihatdan jadalashganini ijobiy baholadi. Onlayn uchrashuvda O‘zbekistonning suveren xalqaro obligatsiyalarini sotib olish uchun jami 5,5 milliard dollarlik buyurtmalar kelib tushgani e’tiborga molik. Ya’ni AQSH dollaridagi (7 yillik) obligatsiyalarga 3 milliard dollar, yevrodagi (3 yillik) obligatsiyalarga 2 milliard yevro, so‘mdagi (3 yillik) obligatsiyalarga 4 trillion so‘mlik buyurtma berilgan.

Davomi 3-beta

Hamkorlik istiqbollari

Boshqirdiston hududida
10 MING GEKTARGACHA YER AJRATILADIUnda farg‘onalik tadbirkor-dehqonlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
yetishtirish hamda chorvachilik loyihalarini amalga oshiradi

O‘zbekiston va Rossiya hamkorligi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Joriy yilning 4 oyi davomida o‘zaro savdo aylanmasi 3,844 milliard dollarga yetdi. Bu avvalgi yilning shu davriga qiyoslanganda ikki hissa ko‘p. Bugungi kunda Rossiya bilan hamkorlikda 3 mingdan ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.



O‘z navbatida, saxovatli zaminimizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismi Rossiya bozorlariga eksport qilinmoqda. Shuningdek, to‘qimachilik, paxta, ipak va boshqa sanoat mahsulotlarimizga bo‘lgan talab ham yuqori.

Farg‘ona viloyatida ham Rossiya ishlabarmonlari, yirik ishlab chiqarish korxonalar va kompaniyalari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqdi. Bu azaliy do‘stlik va birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, savdo-sotiq hamda turizm yo‘nalishlarini kengaytirish imkonini bermoqda.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov boshchiligidagi viloyat rasmiylari va ishlabarmonlaridan iborat delegatsiya Boshqirdiston Respublikasi hamda Sverdlovsk viloyatida bo‘lib, iqtisodiyot, fan-ta’lim, turizm yo‘nalishlarida istiqbolli loyihalar yuzasidan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi.

Davomi 3-beta

Taraqqiyot mezonlari



JAHON BOZORIGA YO‘L

O‘tgan yilning dekabr oyida yurtimizda faoliyat yuritayotgan
bir nechta to‘qimachilik korxonasi WRAP (Worldwide Responsible
Accredited Production) xalqaro ijtimoiy sertifikatini qo‘lga kiritgani
xususidagi xabarlar tarqalgandi.

Voqeaning ahamiyati shundaki, bunday sertifikatini bor korxonalar dunyoning yirik iste‘mol bozorlaridan biri — AQSH (bir yilda qariyb 100 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari import qiladi) bozoriga bemaol sotish imkoniga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham soha vakillari WRAP sertifikatini AQSH bozoriga kirish chiptasiga qiyoslaydi. Shundan kelib chiqib aytganda, raqobat va iste‘mol madaniyati tobora yuqorilab borayotgan hozirgi paytda o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar xalqaro doiraga dadil kirib borayotgani diqqatga sazovordir.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston

2024-yilning o‘tgan to‘rt oyida qiymati 1 milliard AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilgan. Bu ko‘rsatkich umumiy eksportning 11,9 foizini, eksport qilingan mahsulotlar tarkibida tayyor kiyim-kechaklar ulushi esa 37,3 foizni tashkil etgan. O‘zbek to‘qimachilik mahsulotlari ayni paytda dunyoning 60 dan ziyod davlatiga sotilmoqda. Endi biz xaridor va bozorni tanlash darajasiga yetayapmiz. O‘zbek tadbirkorlari, o‘zbek mahsulotlari dunyo bozorida munosib o‘rin egallayapti.

Davomi 4-beta

MILLIY TURIZM
Uni butun dunyoga
targ‘ib etishning muhim
bosqichi boshlandi

6

